

QARLUQ LAHJASI MORFOLOGIYASINING SHONAZAR SHOABDURAHMONOV TOMONIDAN O'RGANILISHI

*Qodirov Umarjon Akramjon o'g'li,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi
umarqodirov6669@gmail.com*

Annotatsiya. Shonazar Shoabdurahmonov uzoq yillik ilmiy faoliyati davomida tilshunoslikning turli sohalari bo'yicha ish olib borgan. Bularning ichida, albatta, dialektologiya sohasidagi tadqiqot ishlari alohida o'rinn tutadi. 1950-yillarning o'rtalaridan o'zbek shevalarini o'rganishga kirishdi hamda shundan keyingi asosiy ilmiy faoliyati o'zbek dialektologiyasi bo'yicha bo'ldi. U o'zbek tilining qarluq lahjasini chuqur tadqiq qilgan olim. Ushbu maqolada olimning qarluq lahjasi morfoloyigasiga oid tadqiqoti haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. O'zbek tili, qarluq lahjasi, dialekt, sheva, asos, egalik, ko'plik, adabiy til, shahar shevasi.

KARALUK LEHÇESİNİN MORFOLOJİSİNİN ŞONAZAR ŞOABDURAHMANOV TARAFINDAN İNCELENMESİ

*Kodirov Umarjon Akramjon oğlu,
Alisher Navoiy Adli Taşkent devlet özbek dili ve edebiyatı üniversitesi öğretim üyesi*

Özet. Şonazar Şoabdurahmanov, uzun yıllar süren bilimsel kariyeri boyunca dilbilim alanında birçok çalışmaya imza atmıştır. Bunlar arasında özellikle diyalektoloji alanındaki araştırmaları önemli bir yer tutmaktadır. 1950'li yılların ortalarından itibaren Özbek lehçelerini incelemeye başlamış ve sonraki bilimsel faaliyetleri Özbek diyalektolojisi üzerine yoğunlaşmıştır. Özbek dilinin Karaluk lehçesini derinlemesine araştıran bir bilim insanıdır. Bu makalede, bilim insanının Karaluk lehçesinin morfolojisi üzerine yaptığı araştırmalar ele alınacaktır.

Anahtar kelimeler. Özbek Dili, Karaluk Lehçesi, Diyalekt, Lehçe, Temel, Sahiplik, Çoğul, Edebi Dil, Şehir Lehçesi.

ИЗУЧЕНИЕ МОРФОЛОГИИ КАРЛУКСКОГО ДИАЛЕКТА ШОНАЗАРОМ ШОАБДУРАХМАНОВЫМ

*Кодиров Умаржон Акрамжонович,
преподаватель Ташкентского государственного университета
узбекского языка и литературы имени Алишера Навои*

Аннотация. Шоназар Шоабдурахманов в течение многих лет своей научной деятельности занимался исследованиями в различных областях языкоznания. Особенno важное место среди его работ занимают исследования в области диалектологии. С середины 1950-х годов он начал изучать узбекские диалекты, и его основная научная деятельность была посвящена узбекской диалектологии. Он стал ученым, глубоко исследовавшим карлукский диалект узбекского языка. В данной статье рассматриваются исследования ученого по морфологии карлукского диалекта.

Ключевые слова. узбекский язык, карлукский диалект, диалект, говор, основа, притяжательность, множественное число, литературный язык, городской говор.

STUDY OF THE MORPHOLOGY OF THE KARLUK DIALECT BY SHONAZAR SHOABDURAKHMANOV

Kodirov Umarjon Akramjon o'gli,
teacher at the Alisher Navoi Tashkent state university of uzbek language and literature

Annotation. Shonazar Shoabdurakhmanov, during his long scientific career, worked in various fields of linguistics. Among these, his research in the field of dialectology holds a special place. Since the mid-1950s, he began studying Uzbek dialects, and his main scientific activity became focused on Uzbek dialectology. He is a scholar who conducted in-depth research on the Karluk dialect of Uzbek. This article discusses the scholar's research on the morphology of the Karluk dialect.

Keywords. Uzbek language, Karluk dialect, dialect, speech, base, possession, plural, literary language, urban speech.

Egalik kategoriyasi. Sh. Shoabdurahmonov qarluq lahjasining farg‘ona guruh shevalaridagi egalik qo‘sishimchalari asosan adabiy tildagi egalik qo‘sishimchalari bilan mos ekanligini, lekin ayrim shevalarda (Toshkent, Jizzax, Parkent) ularning o‘ziga xos belgilari mavjudligini ta’kidlaydi [2, 88]. Masalan, toshkent shevasida:

Unli bilan tugagan o‘zakdan so‘ng			Undosh bilan tugagan o‘zakdan so‘ng	
Shaxs	Birlik	Ko‘plik	Birlik	Ko‘plik
1	-м	-суз// -уз// -суза// -за	-ъм	-суз// -у:з// -уз// -суза// -:з// -за
2	-нг (>и)	-йъз// -ъз// -йлә	-ънг (>ъй)	-ъйъз// -йъ:з// -ъз// -йлә
3	-съ	-съ	-ъ	-ъ, -луғъ// -луғъ

Egalik qo‘sishimchalari faqatgina ot turkumidagi so‘zlarga emas, sifatdoshlarga ham qo‘shiladi: *йъярънъ иен*, *ъярънъ ъчъп* // ad.-orf. yeyarini yeb, icharini ichib. Egalik qo‘sishimchalari ko‘pincha *-ган* bilan tugagan sifatdoshlarga ham qo‘shiladi: *оқъгәнъм-оқъгән*.

O‘zbek adabiy tilida egalik qo‘sishimchalari odatda so‘z o‘zagining qurilishini o‘zgartirmaydi, faqat ayrim holatlarda unlinking tushishi va so‘z oxiridagi қ va κ tovushlarining jaranglilashishi yuz beradi. Qarluq lahjasini shevalarida esa ъ tovushining tushishi (toshk. қоннъм, қоннънг, қоннъ < қорън; қўйнъм, қўйнънг, қўйнъ < қўйън), и tovushining tushishi (toshk. Буннъм, буннънг, буннъ < бурун), ә tovushining tushishi (toshk. шәхръм, шәхрънг, шәхръ < шәхэр); [қ > ғ] almashishi: *ортәгъм*, *ортәгънг*, *ортәгъ* < ортққ; қышләгъм, қышләгънг, қышләгъ < қышләқ. Bu holat bir bo‘g‘inli so‘zlarda uchramaydi.

Qarluq lahjasining toshkent guruhi shevalarida [ə] tovushi bilan tugagan so‘zlarda 1-2-shaxslarda so‘z oxiridagi [ə] tovushi bilan egalik qo‘sishimchasi orasida ү tovushi orttiriladi:

Shaxs	Birlik	Ko‘plik
1	<i>пәрвәйъм</i>	<i>пәрвәйуз</i> // <i>пәрвәйувуз</i>
2	<i>пәрвәйънг</i>	<i>пәрвәйъз</i>
3	<i>пәрвәсъ</i>	<i>пәрвәсъ</i>

Egalik qo‘sishimchasi odatda so‘z o‘zagiga qo‘shiladi. Lekin agar o‘zakka ko‘plik qo‘sishimchasi qo‘shilgan bo‘lsa, egalik qo‘sishimchasi ko‘plik qo‘sishimchasiidan keyin qo‘shiladi:

Shaxs	Birlik	Ko‘plik
1	<i>къиймләръм</i>	<i>къиймләръмъз</i> // toshk. <i>къиймләруз</i>
2	<i>къиймләрънг</i>	<i>къиймләръйз</i> // toshk. <i>къиймләръз</i>
3	<i>къиймләръ</i>	<i>къиймләръ</i> // toshk. <i>къиймләръ</i>

Toshkent guruhi shevalarida egalik qo'shimchasi ko'plik qo'shimchasidan oldin kelishi ham mumkin: toshk. үзъмъйлә, бэфъйлә. Qiyoslang: farg'. үзүмләрънг, бэфләрънг.

Qarluq lahjasi shevalarida xuddi adabiy tildagidek, otlarga qo'shilib egalik kategoriyasini hosil qiladigan -нъкъ > -дъкъ // -тъкъ egalik qo'shimchalari mavjud. Toshkent guruhi shevalarida ushbu egalik qo'shimchasing birinchi undoshi so'zdag'i oxirgi undoshga moslashadi. Qiyoslang: jiz. Кәръмнъкъ, мәнъкъ, сәнъкъ, бъздъкъ, създъкъ, туттъкъ; toshk. күззъкъ, бәшшъкъ, тәккъкъ, темърръкъ, тәллъкъ va h.k.

Ko'plik kategoriyasi. Shonazar Shoabdurahmonov o'zbek shevalarida ko'plik kategoriyasi xuddi adabiy tildagidek morfologik (бәләләр // бәләлә // бәләлә, мәллар // мәллә) va sintaktik (он әдәм, кәттә-къчък, хәр хъл қәләм, тодә-тодә) usul bilan hosil qilinishini ta'kidlab o'tadi. [2, 90]

-лар affiksi adabiy tilimizda ham, qarluq lahjasi shahar shevalarida ham quyidagi ko'rinishlarga ega: -лар (and. қызлар), -ләр (and. гүлләр), -лә (toshk. әдәмлә), -әр (park. бъзәр), -ә (toshk. бъзә, бъзә > бзә).

Qarluq lahjasining ayrim shevalarida I va II shaxs kishilik olmoshlarining ko'plik shakllari bir qator o'ziga xosliklarga ega: jiz. съзлә // сълә ≈ съләр. Masalan, съзлә (съла) бәрънглә // ad.-orf. sizlar boringlar.

Toshkent shevasida kishilik olmoshining II shax birlik shakliga -lar ko'plik yasovchi qo'shimcha qo'shilganda (сәнлә > сәллә) II shaxs ko'plik olmoshi съз bilan aynan bir xil ma'no ifodalamaydi. Сәнлә > сәллә shaklida II shaxs ko'plik ma'nosini bilan birga murojaat qilinayotgan shaxslarga nisbatan mensimaslik ma'nosini ham bor.

Qarluq lahjasi shevasida -lar ko'plik affiksi fe'lga ham qo'shiladi. Bunda harakatning bajaruvchiları bir necha shaxslardan iborat bo'ladi. Bunda ko'plik yasovchi qo'shimcha otlarda bo'lgani kabi so'zning o'zagiga qo'shilmaydi. Balki fe'lga qo'shilgan shaxs-son va zamon qo'shimchalaridan keyin qo'shiladi. Agar adabiy tilda -lar affiksi III shaxsga qo'shilsa, shevalarda II shaxsga ham qo'shiladi. Bunday holda -lar ko'shimchasi -z (-iz) qo'shimchasing vazifasini bajaradi. Masalan, park. дәрйәгә тәш әтмәнгләр бәтәр кетәр (qiyoslang: ad.-orf. otmangiz).

Fe'llarda ko'plikni ifodalash uchun -lar ko'shimchaside tashqari -k (келдик) va -q (sayr. бардық) affikslari ham ishlataladi. Toshkent shevasida I shaxs ko'plik ma'nosini ifodalash uchun -мъз > -вуз (күрдъмъз > күрдувуз > күрду:з), II shaxs ko'plikni ifodalash uchun esa -з (бәрдъз) affiksi qo'llanadi.

Toshkent shevasida -луг affiksi egalik ma'nosini bilan birgalikda ko'plik va hurmat ma'nolarini ham ifodalaydi: ўзлугъ ≈ farg'. өзләръ, toshk. Күйлугънъ бәкъшәвәттъ // ad.-orf. qo'ylarini boqishyapti.

Qarluq lahjasining toshkent shevasida qarindoshlik ma'nosini bildirgan so'zlarda -лар affiksi I va II shaxs egalik qo'shimchasi oлган so'zlarning o'zagiga qo'shilib, hurmat ma'nosini ifodalaydi: әйъмлә, буевъмлә; әйъйлә (>әйънглә), буевъйлә (<бувънглә) va h.k. Shu turkumdagı so'zlarda ko'plikni ifodalash uchun (qarindoshlik ma'nosini ifodalagan so'z birlik sonda bo'ladi) so'z o'zagiga qo'shilgan egalik qo'shimchasi bilan ko'plik shaklini yasovchi qo'shimcha o'rtasida -гъ formanti paydo bo'ladi: Qiyoslang: бувәмлә, бувәйлә ≈ бувәмгълә, бувәнгълә; хәләмлә, хәләйлә ≈ хәләмгълә, хәләнгълә; тәғәмлә, тәғәйлә ≈ тәғәмгълә, тәғәнгълә; экәмлә, экәйлә ≈ экәмгълә, экәнгълә; әпәмлә, әпәйлә ≈ әпәмгълә, әпәнгълә.

Tuslanish. Sh. Shoabdurahmonov qarluq lahjasining shahar shevalarida tuslanish tizimi o'ziga xos jihatlarga ega ekanligini ko'rsatib o'tgan. Masalan, and. -дък (келдък) ≈ toshk. -дув(зә) [келдув(-зә)], jiz. -тый (куттый), toshk. -вәммән (бәрвәммән) ≈ and. -йәппән (бәрйәппән) ≈ park. -воттъм (бәрвоттъм) ≈ samarq. -эмман (бәрэмман) ≈ namang. -уттъмән (бәруттъмән). [2, 93]

Tuslanish tizimida shevalardagi farq buyruq maylining shakllarida ham ko'rindi: toshk., park. -ый (кельй), -гън (кеғън), -сън (кесън) va h.k.

Qarluq lahjasi shevalarida fe'llarning tuslanishi

O'tgan zamon

Aniq o'tgan zamon "kel" va "kut" fellarining tuslanishi

Shaxs	Birlik	Ko‘plik
1	келдъм (<i>farg’., and.</i>)	келдък [//toshk. келдув(зә)]
2	келдънг	келдъйнәр [//toshk. келдъйлә]
3	келдъ	келъштъ
1	куттъм (<i>jiz.</i>)	куттъй
2	Куттънг	куттъйъз
3	куттъ	куттъ(лә)

Hozirgi zamон “bormoq” fe’li

Shaxs	Birlik	
1	бэрвэммән (<i>toshk.</i>)	барийәппән//бэрйәппән (<i>and., farg’.</i>)
2	бэрвессән	барийәпсән//бэрйәпсән
3	бэрвэттъ	барийәптъ//бэрйәптъ
Ko‘plik		
1	бэрвэммъз// бэрвэммъзә	барийәптъз//бэрйәптъз
2	бэрвессълә	барийәпсъләр//бэрйәпсълар
3	бэрвэшттъ	баръишиәптъ//бэръишиәптъ

Shaxs	Birlik		
1	бэрвэттъм (<i>park.</i>)	бэрвэмман <i>samarq.</i>)	бэрүттъмән (<i>namang.</i>)
2	бэрвэттънг	бэрвансан	бэрүттъсән
3	бэрвэттъ	бэрванту	бэрүттъ

Kelasi zamон “bormoq” fe’li

Shaxs	Birlik	
1	бэрәрмән // барәрмән (<i>and., farg’.</i>)	бэрәрмән > бэрә:мән (<i>toshk.</i>)
2	бэрәрсән // барәрсән	бэрәрсән > бэрә:сән
3	бэрәр // барар	бэрәр
Ko‘plik		
1	бэрәрмъз // барәрмъз	бэрәрвуз > бэрә:вуз(ә)
2	бэрәрсъләр // барарсъләр	бэрәрсълә > бэрә:сълә
3	бэръишәр // баръишәр	бэръишәр

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 176 b.
2. Шаабдурахманов Ш. Карлукское наречие узбекского языка. – Ташкент: Фан, 1983. – 192 с.
3. Шаабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: Фан, 1962. – 372 б.
4. Шаабдурахмонов Ш. Ўзбек халқ шеваларида сўз ва форма ясовчи аффикслар / Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент, 1984. – Б. 238-247.